



O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki

MEHNAT BOZORI SHARHI

III chorak 2025-yil

**Pul-kredit siyosati departamenti
tomonidan tayyorlandi**

Rezyume

2025-yilning III choragida mehnat bozorida biznes subyektlari tomonidan taklif etilayotgan bo'sh ish o'rinlari sonining barqaror o'sishi davom etdi. Ushbu davr oralig'ida ish qidirish faolligi biroz pasaygan bo'lsa-da, faol mehnat arizalari (rezyumelar) soni yuqoriligicha saqlanib qolishi kuzatildi.

Iqtisodiy faollik bo'yicha so'rovnoma natijalarida III chorakda ish o'rinlari sonini oshirishni kutayotgan tadbirkorlar bilan bir qatorda ish o'rinlari sonini qisqartirilishini bildirayotganlar ulushi ham o'sganligi qayd etildi.

Mazkur chorak davomida ham mamlakat iqtisodiyotida kengayish davom etdi. Bunda, mehnat bozorida bosimning kuchayishi, ya'ni ishsizlikning pasayishi bilan bir vaqtda ishchi kuchiga bo'lgan talabning ortib borishi kuzatildi.

III chorakda byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi oshirilishi hamda inflyatsiyaning nisbatan pastroq kuzatilishi fonida nominal va real ish haqi o'sish sur'atlari (*shu jumladan qo'shni davlatlarga nisbatan ham*) yuqori shakllandi.

Shuningdek, mehnat muhojirlari tomonidan O'zbekistonga pul o'tkazmalari o'sish sur'ati yuqori saqlanib qoldi hamda mehnat migratsiyasi yo'nalishlarining (*asosan Osiyo, Yevropa va AQSH mintaqalari hisobiga*) kengayishi davom etdi.

Mehnat bozori sharhi


Mehnat resurslari

2025-yilning III choragida mehnat bozorida taklif etilayotgan bo'sh ish o'rinlari sonining barqaror o'sishi davom etdi. Xususan, ochiq manbalar ma'lumotlariga¹ ko'ra, III chorakda biznes subyektlari tomonidan o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 foizga ko'p ish o'rinlari e'lon qilinib, ularning salmoqli qismi savdo (17,9%), umumiy ovqatlanish (17,1%) va ishlab chiqarish (17,0%) tarmoqlari hissasiga to'g'ri keldi (1-rasm).

Muqobil manbalar iyul-sentyabr oylarida ish qidirish faolligi biroz pasayganligini, biroq faol mehnat arizalari (*rezyumelar*) soni yuqoriligicha saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda². Bunda savdo, mijozlarga xizmat ko'rsatish, uy xizmatchisi, marketing va reklama sohalarida rezyumelar soni sezilarli oshgan.


Shu bilan birga, so'nggi oylarda kuzatilgan onlayn ish qidirish faolligi dinamikasining mavsumiy o'sish tendensiyasi sentyabr oyiga kelib pasayishga o'tdi (2-rasm).

1-rasm. E'lon qilinayotgan bo'sh ish o'rinlari soni, mingta



Manba: Markaziy bankning ochiq ma'lumotlarga asoslangan hisob-kitoblari.

2-rasm. Ish qidirish bo'yicha so'rovlar sonining nisbiy dinamikasi indeksi



Manba: Google Trends ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

¹ Veb-skrapping (web scraping) yordamida www.olx.uz saytida e'lon qilingan ish o'rinlari bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili.


² <https://alat.hh.uz/article/34023>.

2025-yilning III choragida tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ish o'rinlari taklifining sezilarli o'sishi hamda ish o'rinlariga bo'lgan talabning yuqori saqlanib qolishi mehnat bozorida faollikning yuqori shakllanayotganligini aks ettiradi. Bu esa qisqa muddatli oraliqda iqtisodiy o'sishning jonlanishi va talabning oshishi orqali inflyatsion bosimning saqlanib qolishini ko'rsatadi.

Markaziy bank tomonidan o'tkazilgan iqtisodiy faollik bo'yicha so'rovnoma natijalari iyul-avgust oylarida ish o'rinlari sonini oshirishni kutayotgan respondentlar ulushi o'sganligini ko'rsatmoqda. Jumladan, ushbu davr davomida o'rtacha 33,9 foiz (*II chorakda 30,2 foiz bo'lgan*) tadbirkorlar kelgusi uch oyda ish o'rinlari sonini oshirishini bildirishgan. Biroq sentyabr oyiga kelib ish o'rinlari sonini oshirishni kutayotgan tadbirkorlar ulushining mavsumiy pasayishi kuzatildi (*30,8 foizgacha pasaygan, 3.a-rasm*).

Shu bilan bir qatorda, ish o'rinlari sonini qisqartirilishini bildirgan tadbirkorlar ulushi ham II chorakdagi o'rtacha 8,7 foizdan III chorakda 12,7 foizgacha oshdi. Bunda asosan qurilish sohasida faoliyat yurituvchi respondentlarning 16,4 foizi (*o'tgan yilning mos davrida 11,7 foiz bo'lgan*), savdo sohasidagilarning esa 25,6 (*3,8 foiz bo'lgan*) foizi ish o'rinlarini qisqartirishlarini bildirishgan (*3.b-rasm*).

3-rasm. Ish o'rinlari sonining o'zgarishi bo'yicha korxonalar kutilmalari, foizda




Manba: Markaziy bank.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar sonida so'nggi yillarda kuzatilgan yuqori o'sish sur'atlari, 2025-yilning III choragiga kelib sezilarli pasaydi. Xususan, YaTTlar soni 2025-yil 1-sentyabr holatiga 1-iyulga nisbatan 4,8 foizga pasayib 282 ming nafarni tashkil etdi. O'zini-o'zi band qilgan shaxslar soni esa iyun oyiga kelib 5,5 million nafarga yetdi (4-rasm).

Markaziy bank o'rganishlari 2025-yil III choragida ham mamlakat iqtisodiyotida kengayish davom etayotganligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ushbu holat 2025-yilning II va III choraklarida yaqqol namoyon bo'lgan (5-rasmda O'zbekiston bo'yicha Beverij egri chizig'i chapga vertikal siljigan). Bunda mehnat bozorida bosimning kuchayishi, ya'ni ishsizlikning pasayishi bilan bir vaqtda ishchi kuchiga bo'lgan talabning ortib borishi kuzatilgan.

Ma'lumot uchun: Beverij egri chizig'i ishsizlik va bo'sh ish o'rinlari darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettirib, mehnat bozori holati va iqtisodiyot barqarorligi bo'yicha muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Jumladan: 1) Beverij egri chizig'ining chap tomon pastga siljishi mehnat bozori samaradorligi oshganini bildiradi; 2) egri chiziqning o'ng tomon yuqoriga siljishi mehnat bozori samaradorligi pasayganligidan dalolat beradi; 3) egri chiziqning chapga vertikal siljishi iqtisodiyot kengayish bosqichiga kirayotganligini, o'ngga vertikal siljishi esa iqtisodiyot tanazzul (retsessiya) bosqichiga o'tayotganligini anglatadi.


4-rasm. O'zini-o'zi band qilganlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni, ming kishi



Manba: Soliq qo'mitasi.

* 2025-yil yanvar-iyun holatiga

5-rasm. O'zbekiston bo'yicha Beverij egri chizig'i, foizda




Manba: Milliy statistika qo'mitasi, KQBV va ochiq manbalar ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

Ish haqi dinamikasi


2025-yilning III choragida byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi oshirilishi hamda inflyatsiyaning nisbatan pastroq kuzatilishi fonida nominal va real ish haqi o'sish sur'atlarining yuqori shakllanishi kuzatildi. Xususan o'tgan 9 oy davomida nominal ish haqi yillik 19,2 foizga o'sgan bo'lsa, real ish haqi o'sish sur'ati³ 9,1 foizni tashkil etdi (6-rasm). Bunda o'rtacha oylik ish haqi qariyb 6,2 mln so'mga teng bo'ldi.

Sohalar kesimida, moliya va sug'urta hamda axborot va kommunikatsiya xizmatlari yo'nalishlarida o'rtacha ish haqining boshqa sohalarga nisbatan yuqori shakllanishi saqlanib qoldi (*mos ravishda 16,8 va 15,0 mln. so'm*). Shu bilan birga, III chorak davomida ijtimoiy xizmatlar, tashish va saqlash hamda boshqa yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi xodimlarning ish haqisi qolgan tarmoqlarda faoliyat yurituvchilarnikiga nisbatan real va nominal qiymatlarda yuqoriroq o'sdi. Ish haqining eng kam o'sishi qurilish sohasida saqlanib qoldi, ushbu sohada faoliyat yurituvchi xodimlarning o'rtacha ish haqi nominal qiymatda yillik 9,2 foizga oshgan bo'lsa, real qiymatda 0,1 foizga kamaydi (7-rasm).

6-rasm. Iqtisodiyotda ish haqining o'sish sur'ati, foiz




7-rasm. Ayrim tarmoqlarda o'rtacha ish haqi, mln so'mda



Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

³ Ta'kidlash joizki, byudjet tashkilotlari uchun ish haqining oshirilishi va inflyatsiyaning nisbatan pastroq kuzatilishi O'zbekistonda real ish haqining qo'shni davlatlarga nisbatan sezilarli darajada yuqoriroq shakllanishiga hissa qo'shdi (batafsil 1-havolada).

8-rasm. Hududlarda real ish haqining o'sishi, foizda

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

Hududlar kesimida, 2025-yilning o'tgan 9 oyi davomida real ish haqining eng yuqori o'sishi Samarqand (14,6 foiz), Sirdaryo (11,1 foiz) va Namangan viloyatlarida (10,9 foiz) kuzatilgan bo'lsa, eng past o'sish Andijon (2,9 foiz) va Navoiy (5,9 foiz) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi (8-rasm).

Real ish haqi o'sishidagi hududiy farqlar iqtisodiy faollik va ishchi kuchiga bo'lgan talabning hududlar kesimidagi turli darajalarini aks ettiradi. Ayrim hududlarda ish haqining yuqoriroq o'sishi mazkur hududlarda mehnat bozorining faolligi, ishchi kuchiga bo'lgan talabning balandroq kuzatilayotganligidan dalolat berib, uy-xo'jaliklari iste'mol xarajatlarini yuqoriroq shakllanishiga olib kelishi mumkin.


Bu, o'z navbatida, hududiy iqtisodiy o'sishni qo'llab quvvatlashi, biroq agar ish haqi o'sishi ishlab chiqarish unumdorligi o'sishidan yuqoriroq shakllansa talab tomondan inflyatsion bosimning oshishi kuzatilishi mumkin.

Qo'shni davlatlarda ish haqi dinamikasi shakllanishi


2025-yilning III choragida O'zbekistonda real ish haqining o'sishi mintaqadagi davlatlar bilan solishtirganda sezilarli darajada yuqori shakllandi. Xususan, III chorakda Markaziy Osiyo davlatlarida real ish haqining o'rtacha o'sishi 4,4 foizni, ayrim Kavkaz davlatlarini hisobga olganda esa 3,3 foizni tashkil etdi (*ushbu davrda O'zbekistonda real ish haqi o'sishi 9,1 foizga teng bo'lgan, 1-rasm*).

Shuningdek, 2025-yilning III choragida O'zbekistonda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 103 AQSH dollarini tashkil etdi⁴ (*2-rasm*). Eng yuqori minimal ish haqi miqdori Belarusiya (240 AQSH dollari), Ozarbayjon (235 AQSH dollari) va Mongoliya (221 AQSH dollari) davlatlarida saqlanib qolgan bo'lsa, eng past minimal ish haqi Qirg'iziston (28 AQSH dollari) va Tojikiston (55 AQSH dollari) davlatlarida kuzatildi.

1-rasm. Mintaqada real ish haqi o'sish sur'ati tendensiyasi, yillik foiz



2-rasm. 2025-yil III chorakda ayrim davlatlarda amaldagi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori, AQSH dollarida



Manba: Markaziy bank, Milliy statistika qo'mitasi va CEIC ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

* Markaziy Osiyo va Kavkaz: Qozog'iston, Mongoliya, Gruzziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari.

** Markaziy Osiyo: Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari.

⁴ So'nggi davrlarda kuzatilgan so'mning AQSH dollariga nisbatan qadrlining sezilarli oshishi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining AQSH dollari ekvivalentidagi qiymatini yuqoriroq shakllanishiga xizmat qildi. Natijada bu O'zbekistonda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori Gruzziya davlatidagidan ham yuqoriroq shakllanishiga olib keldi.


Pul o'tkazmalari dinamikasi va mehnat muhojirlari oqimi

2025-yilning uchinchi choragida mehnat muhojirlari tomonidan O'zbekistonga jami 5,7 mlrd. dollar miqdorida pul o'tkazmalari amalga oshirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,5 foizga o'sdi (2024-yilning mos davrida 4,8 mlrd, 9-rasm). Joriy dinamikaning shakllanishi asosan mehnat muhojirlarini qabul qiluvchi mamlakatlarda valyuta kurslarining nisbatan barqarorligi, ish haqining oshishi va iqtisodiy faollikning yuqori sur'atlari bilan bog'liq.


III chorakda Boltiq davlatlari va boshqa mintaqalardan (AQSH, Rossiya, Yevropa va Osiyo mintaqalarini hisobga olmaganda) o'tkazmalar hajmi o'sish sur'ati qolgan mintaqalarga nisbatan yuqoriroq saqlanib qoldi. Xususan, mazkur mintaqalardan pul o'tkazmalari 40 foizga o'sdi (10-rasm).

Shu bilan birga, Yevropa, Rossiya va Osiyo mintaqalaridan esa o'tkazmalar o'sish sur'atining sekinlashish tendensiyasi davom etdi.

9-rasm. Pul o'tkazmalari dinamikasi, mlrd doll.



10-rasm. Ayrim mintaqalardan pul o'tkazmalari o'sish sur'atining o'zgarishi, yillik, foizda



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

Izoh: **Boltiq davlatlari mintaqasi** Latviya, Litva va Estoniya davlatlarini, **Yevropa mintaqasi** Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Polsha, Germaniya, Niderlandiya, Finlandiya, Ispaniya, Chexiya, Gruziya, Fransiya va Xorvatiya davlatlarini hamda **Osiyo mintaqasi** Qozog'iston, Janubiy Koreya, Turkiya, Isroil, Qirg'iziston, Birlashgan Arab Amirliklari, Tojikiston, Kipr va Yaponiya davlatlarini o'z ichiga oladi.

Tashqi bozorda, xususan Rossiya, Yevropa va Boltiq davlatlarida⁵ kuzatilayotgan so'nggi tendensiyalar hamda ishchi kuchiga bo'lgan talabning o'sishi pul o'tkazmalaridagi joriy dinamikaning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu, o'z navbatida, mehnat muhojirlari oqimi yo'nalishlari bosqichma-bosqich kengayayotganligidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda migratsiya yo'nalishlari kengayishi asosan Osiyo, Yevropa va AQSH mamlakatlarida kuzatilmoqda. Xususan, 2025-yil 1-oktyabr holatiga Koreya Respublikasidagi O'zbekistonlik rezidentlar soni yil boshiga nisbatan 0,4 foizga o'sib, 95,3 mingtani tashkil etdi (11-rasm).

Turkiyada kuzatilayotgan makroiqtisodiy vaziyatning bosqichma-bosqich barqarorlashuvi sharoitida ushbu davlatga migratsiya oqimining yuqori saqlanib qolishi kuzatilmoqda. Buni O'zbekiston fuqarolari uchun ushbu davlatda berilayotgan yashash ruxsatnomalari soni hamda doimiy bo'lmagan migrantlar oqimining oshib borayotganligidan ham ko'rish mumkin (12-rasm).


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi ma'lumotlariga ko'ra so'nggi ikki yilda xorijda ishga joylashtirilgan fuqarolar soni ham sezilarli o'sgan. Xususan, 2025-yilning yanvar-oktyabr oylari davomida 175 mingga yaqin mehnat muhojirlari xorijga ishga joylashtirish maqsadida yuborilgan.

Ta'kidlash joizki, Migratsiya agentligi orqali Osiyo va Yevropaga yuborilgan migrantlar soni sezilarli oshgan bo'lsa-da, mehnat migratsiyasining asosiy yo'nalishi Rossiya bo'lib qolmoqda (13-rasm).

Shuningdek, so'nggi yillarda AQSHda istiqomat qiluvchi O'zbekistonliklar sonining sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. AQSH Migratsiya siyosati instituti hisob-kitoblariga ko'ra 2024-yilda AQSHdagi O'zbekistonliklar soni 2023-yilga nisbatan 8,8 foizga o'sib, qariyb 82 ming nafarni tashkil etgan.


⁵ Ukraina-Rossiya mojarosi, shu jumladan sanksiyalar sababli Rossiyada kuzatilayotgan so'nggi tendensiyalar, Yevropa davlatlarida ishchi kuchiga bo'lgan talabning saqlanib qolishi, ularning Markaziy Osiyo mintaqasi bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini kuchayishi, Boltiq davlatlari va boshqa davlatlarda kuzatilayotgan so'nggi tendensiyalar joriy dinamikaning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

11-rasm. Koreya Respublikasida O'zbekiston rezidentlari soni, ming kishi, foizda




Manba: Koreya immigratsiya xizmati.

12-rasm. O'zbekiston fuqarolari uchun Turkiyada yashash ruxsatnomalari va doimiy bo'lmagan migratsiya, ming



Manba: Turkiya migratsiya boshqarmasi.


13-rasm. Migratsiya agentligi orqali xorijda ishga joylashgan fuqarolar soni, mingta



Manba: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi

Izoh: **Boltiq davlatlari mintaqasi** Latviya, Litva va Estoniya davlatlarini, **Yevropa mintaqasi** Buyuk Britaniya, Germaniya, Polsha, Bolgariya, Belorussiya, Xorvatiya, Slovakiya va Chernogoriya davlatlarini hamda **Osiyo mintaqasi** Turkiya, Yaponiya, Birlashgan Arab Amirliklari Qatar va boshqa davlatlarini o'z ichiga oladi.

14-rasm. AQSHda O'zbekistonliklar soni va taqdim etilgan vizalar, mingta



Manba: AQSH Davlat Departamenti Konsullik Ishlari Byurosi va AQSH Migratsiya siyosati instituti.

Izoh: Umumiy O'zbekistonliklar soni o'z ichiga AQSHda istiqomat qiluvchi O'zbekistonliklar, jumladan fuqarolikni olgan shaxslar, qonuniy doimiy yashovchilar, ayrim qonuniy immigrant bo'lmaganlar (masalan, talaba yoki ishchi vizasi bilan kelgan shaxslar), qochqin yoki boshpana maqomi bilan qabul qilinganlar va AQSHda noqonuniy yashovchi shaxslar kiradi.

O'z navbatida, ushbu davrda AQSH tomonidan taqdim etilgan jami vizalar soni 4,4 foizga, Grin karta (Diversity Visa Program) dasturi va AQSH kompaniyalarining ishchi jalb qilish dasturlari doirasida taqdim etilgan vizalar soni 17,3 foizga o'sdi (*14-rasm*).

Umuman olgan, tashqi bozorlarda, ayniqsa migrantlarning salmoqli qismi faoliyat yurituvchi davlatlarda kuzatilayotgan so'nggi tendensiyalar va boshqa davlatlarda mehnat muhojirlariga bo'lgan talabning o'sishi hamda muhojirlar tanlovining o'zgarib borishi mehnat migratsiyasi yo'nalishlarining sezilarli kengayishiga olib kelmoqda.

© O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025-yil

Pul-kredit siyosati departamenti tomonidan tayyorlandi.

O'z taklif va e'tirozlaringizni quyidagi manzilga jo'natishingiz mumkin:

E-mail: sinogamov@cbu.uz

Tel.: (+998) 71 212-60-22